

BOLALAR ADABIYOTINING NUKTADON OLIMI

Jumayev Farhod Akmamatovich

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti
dotsenti, filologiya fanlari nomzodi*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada taniqli adabiyotshunos olim Rahmatulla Barakayevning insoniy fazilatlarini, shuningdek, olimning bolalar adabiyoti bilimdoni sifatidagi salohiyati borasidagi fikrlar o‘rin olgan.*

***Kalit so‘zlar:** Nuktadon, lisoniy, badiiyat, tasvir, yo‘sini, tahlil va talqin, dissertatsiya.*

Shunday insonlar bo‘ladiki, ularning har bir o‘giti hayot davomida sen uchun juda katta maktab vazifasini o‘taydi.

Rahmatulla akani qariyb yigirma yildan buyon tanisam-da, birinchidan, bu ustozni bolalar adabiyotining nozik va nuqtadon bilimdoni sifatida hurmat qilsam, ikkinchidan, u kishining insoniylik fazilatlarini: olimlarga xos bo‘lgan kamtarlik, xushmuomalalik va eng muhimi, insonni samimiy tushuna bilishi kabilari, albatta, e‘tiborga loyiqdir.

Rahmatulla Barakayev - bolalar adabiyotining yetuk bilimdoni. Ular bolajonlar uchun yozilgan asarning har bir jihatini teran ko‘z, sinchkovlik bilan tahlil qila oladilar va bolalarning pokiza nigohlari orqali ijodkorning har bir so‘ziga, tasviriga va obrazlar ko‘lamiga o‘zgacha yondashadilar.

Ustoz - nafaqat bolalar adabiyotida qalam tebratayotgan xalq shoiri yoki shoiralarning, balki yosh ijodkorlarning ham ijodlaridan boxabar olim. U kishining yana bir muhim jihatlaridan biri – so‘z ilmiga bo‘lgan o‘ta talabchanlikda deb bilaman. Deyarli barcha ilmiy maqolalarida so‘zning ma‘no nozikliklariga katta e‘tibor qaratadilar va ijodkorlardan ham shuni talab qiladilar. Zero, ijodkorning badiiy so‘z qo‘llash usullari hamda lisoniy imkoniyatlari – uning qalb tug‘yonlari hosilasidir.

Rahmatulla aka bilan ijodiy suhbatlar davomida adabiyotshunos olim sifatida ilmiy mulohazasining kengligi va mukammaliligi, ham mumtoz, ham yangi zamon adabiyoti borasidagi qarashlaridan hayratlanasiz.

Rahmatulla Barakayev bolalar adabiyotidagi badiiyatni chuqur ilg‘ay oladi, u – sinchkov mutaxassis. Bolalar adabiyotidagi o‘zgacha soddalik va samimiyat, lisoniy tasvir yo‘sini uning nazaridan chetda qolmaydi. Bu esa shuni ko‘rsatadiki, qaysi bolalar adabiyoti namoyondasini kuzatmang, ular xarakterida bolalarga hos bo‘lgan yuqoridagi fazilatlar mujassamligining guvohi bo‘lasiz. Masalan, O‘zbekiston Xalq yozuvchisi Xudoyberdi To‘xtaboyev, O‘zbekiston Xalq shoiri Anvar Obidjon, Tursunboy Adashboyevlarning o‘zlari ham xuddi shunday: tabiatan sodda, sof va samimiy insonlar edi. Bu ta‘rifning mohiyatini hech qanday mubolag‘asiz Rahmatulla aka misolida ham kuzatish mumkin.

Shu bilan birgalikda, ustozning badiiy so‘z tahlili va talqinida o‘ziga xos ifoda yo‘sini ham mavjud. E‘tiboringizni o‘zim bevosita guvohi bo‘lgan aniq bir misolga qaratmoqchiman. Rahmatulla aka bir paytlar yosh qalamkash shoira, bugungi kunda filolog – tadqiqotchi, bo‘lajak olima Muqaddas Oqmamatovaning “Qalbmida o‘stirgan lolamsan, Vatan!” she‘riy to‘plamidagi to‘rtlikka shunday ta‘rif beradi:

“Bobolarim ruhidan
Mudom olgayman madad.
Senga sodiq qiz bo‘lish -
Mening uchun saodat

der ekan, uning beg‘ubor, pokiza qalbidagi ushbu tuyg‘ular, aslida, ajdodlardan avlodlarga bir umr meros bo‘lib kelayotgan va istiqloq sharofati tufayli yanada yangi pog‘onalarga ko‘tarilgan Vatan mehri unga cheksiz sadoqat, muhabbat, ya‘ni vatanparvarlik hissining rangi, suratlaridir” (M.Oqmamatova. Qalbmida o‘stirgan lolamsan, Vatan! – Toshkent, 2007. – B. 4).

Ko‘rinadiki, Rahmatulla Barakayev bolajonlar qalbini go‘daklarcha toza nigohlar bilan ko‘rib, murg‘ak yurak tebranishlarini chuqur his eta oladi va o‘ta nozik badiiy did bilan baholaydi.

Rahmatulla Barakayevning ilmiy-ijodiy asarlari bugungi bolalar adabiyotining munosib tahlili-yu talqinini qamrab oladi.

Olim yangidan yangi ko‘z ochayotgan iste‘dodlar ijodiga befarq emas. Ularning har bir yilt etgan shu‘lasini imkon qadar o‘z vaqtida ilg‘ab, munosib baholaydi va ruhlantirib, ijodiy kamolikka undaydi.

Rahmatulla Barakayevning hayotda ham, ilmda ham bunday martabalariga erishishlari aslida bejiz emas. Rahmatulla akaning o‘z vaqtida o‘zbek filologiyasining zabardast ustunlari bo‘lgan ustozlarimiz, akademiklar T.Mirzayev, N.Karimov, A.Hojiyev, B.Nazarovlar va filologiya fanlari doktori, professor I.Haqqulovlar (barchasini Olloh rahmatiga olgan bo‘lsin) bilan birgalikda mehnat va ijod qilib, yillar osha vaqt chig‘iridan o‘tib, sayqallanib kelganligidan deb bilaman.

Ustoz Rahmatulla akaning yana shunday bir fazilatlari borki, uni men bir shogird sifatida ilmiy – ijodiy safarlarda, ayniqsa, Angren vohasining ko‘rkam tog‘lari bag‘rida, so‘lim tabiat qo‘ynida ustozning do‘stlari, folklorshunos, adabiyotshunos va tilshunos olimlar, marhum ustozlarimiz N.Mahkamov, M.Jo‘rayevlar (Olloh rahmatiga olgan bo‘lsin), bugungi kunda ustoz bilan yelkama-yelka mehnat qilib kelayotgan ustozlarimiz N.Mahmudov, A.Madvaliyev, Z.Isomiddinov, I.Nosirov, Z.Hamidov va Sh.Turdimovlar bilan safar suhbatlarida tabiat va do‘stlarga bo‘lgan, ibrat olsak arzigulik samimiy tantilik va oqibatning bir necha bor guvohi bo‘lganman.

Ilmning mashaqqatli yo‘llarini tanlayotgan har bir yosh ustozning ham ilmiy-ijodiy, ham hayotiy-insoniy jihatlaridan o‘rnak olsak arziydi.

Zero, ustozlar ilmi va o‘gitidan bahramand bo‘lgan shogird, albatta, kelajak sarhaddari sari yuksaladi.

Mening nomzodlik dissertatsiyam garchi tilshunoslik yo‘nalishida bo‘lishiga qaramay, Rahmatulla akaning keng diapazonli, filolog olim sifatida ham amaliy, ham nazariy bergan ko‘maklari kechagiday yodimda.

Bunday nozikta’b inson bilan ilm yo‘lida ustoz va shogird, hayotda esa og‘a va ini bo‘lish baxti menga musharraf bo‘lganidan xursandman

Bugun ustozimiz Rahmatulla Barakayevning yetmish bahorni qarshilayotganliklarining guvohi bo‘lmoqdamiz. Bir qarashda ana shu yillarning qanchadan qanchasi oppoq qog‘oz ustida ko‘z nurlarini to‘kib, ilm – fanda o‘ziga hos o‘rin va uslub yaratish zahmati bilan o‘tganini his etamiz. Rahmatulla aka hali ko‘plab shogirdlarga rahbarlik qilib, ilm-fanga qo‘shayotgan hissalarining salmog‘ini oshiraveradilar.

Ustozning ana shunday ulug‘ yoshda ham navqironday yurishlarida, samarali ijoddagi yutuqlarning asosiy omillaridan biri oqila ayollari, ya’ni yangamullomizning hamda tarbiyali farzandlarning ardog‘ida bo‘lishlaridadir deb, ushbu ayyom bilan ularni ham muborakbod etaman.

Ustoz sizga esa yana bir bor sog‘lik-salomatlik, ilm ahli bahramand bo‘ladigan ijodiy yutuqlar tilab qolaman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M.Oqmamatova. Qalbimda o‘stirgan lolamsan, Vatan! 2007. B-4.